

O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV ESG STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Tuyev Imomali Ma'mur o'g'li

Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19979712>

Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ boshqaruvning zamonaviy tendensiyasi hisoblangan ESG (Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlarini O‘zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Muallif ESG konsepsiyasining nazariy-huquqiy asoslarini o‘rganib, milliy korporativ huquq tizimida ushbu tamoyillarni huquqiy tartibga solishning samarali modellarini taklif etadi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari talablari asosida milliy investitsion muhitni isloh qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ESG, korporativ boshqaruv, ekologik huquq, ijtimoiy mas‘uliyat, investitsiya muhiti, “yashil” iqtisodiyot, hisobdorlik.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda kompaniyalarning faoliyati faqat foyda olish bilan emas, balki ularning atrof-muhitga ta‘siri va jamiyat oldidagi mas‘uliyati bilan baholanmoqda. O‘zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi korporativ boshqaruvga **ESG (Environmental, Social, Governance)** standartlarini huquqiy jihatdan joriy etishni talab etmoqda.

ESG (Environmental, Social, Governance) – kompaniyalarning atrof-muhitga ta‘siri, ijtimoiy mas‘uliyati hamda korporativ boshqaruv amaliyotini baholash mezonidir. U biznesning ekologik barqarorligi, jamiyat oldidagi mas‘uliyati va samarali boshqaruv tamoyillarini qamrab oladi. Hozirgi kunda jahon miqyosida yirik investorlar va manfaatdor tomonlar korxonalaridan nafaqat moliyaviy natijalarini, balki ularning ekologik va ijtimoiy ta‘siri hamda boshqaruv sifati qanday ekanini ham oshkor etishni talab qilmoqda. Masalan, dunyoning eng yirik kompaniyalarining 77 foizi o‘z barqarorlik faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarini Global Reporting Initiative (GRI) standartlari asosida e‘lon qiladi¹.

Zamonaviy huquqshunoslik fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri korporativ boshqaruvning klassik modellarini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida isloh qilishdir. ESG (Environmental, Social, Governance) konsepsiyasi huquqiy kategoriya sifatida nafaqat korxonalarining axloqiy tamoyillarini, balki ularning normativ-huquqiy majburiyatlarini ham ifodalay boshladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu standartlarning evolyutsiyasini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka ta‘sirini e‘tiborga olish lozim. G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ESG standartlari “yumshoq huquq” (soft law) normalaridan majburiy imperativ normalarga o‘tish bosqichini bosib o‘tgan bo‘lsa, O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ushbu jarayon investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning huquqiy drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda ESG konsepsiyasi global iqtisodiy tizimda tez sur‘atlar bilan tarqaldi. Ayniqsa 2015-yilda qabul qilingan Parij iqlim kelishuviva BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)² ESG standartlarini rivojlantirish uchun muhim siyosiy va institutsional asos

¹ KPMG Valuation & Consulting LLC. (2024, mart). ESG: Роль устойчивого развития в трансформации бизнеса. KPMG Uzbekistan.

² United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development (SDGs). 2015.

yaratdi³. Natijada ko'plab davlatlar, moliyaviy institutlar va yirik korporatsiyalar o'z faoliyatida ESG mezonlarini joriy etishni boshladi. Demak xulosa qilishimiz mumkinki, ESG tushunchasining shakllanishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) muhim rol o'ynagan.

ESG tushunchasi huquqiy kategoriya sifatida "yaxshi korporativ boshqaruv" va "barqaror rivojlanish" konsepsiyalari asosida shakllangan. Xalqaro tajriba (Yevropa Ittifoqi va AQSh modellari) shuni ko'rsatadiki, ESG standartlarini joriy etish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Majburiy (Mandatory): qonun bilan belgilangan qat'iy hisobotlar (masalan, Yevropa Ittifoqining CSRD direktivasi).
2. Ixtiyoriy (Voluntary): kompaniyaning imidji va investitsion jozibadorligi uchun qo'llaniladigan yumshoq huquq normalari.

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi doirasida ESGning ayrim elementlari qonunchilikka kiritilmoqda. Biroq korporativ huquqda ushbu tushunchaning yaxlit huquqiy ta'rifi va majburiy xarakteri hali to'liq shakllanmagan.

ESG tarkibiy qismlari quyidagicha izohlanadi:

1. E (Environmental): atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari.
2. S (Social): mehnat kodeksi va inson huquqlari standartlari.
3. G (Governance): korporativ boshqaruv kodeksi va aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari.

Hozirgi kunda xalqaro moliya institutlari (YTTB, OTB) bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarda ESG hisobdorligi asosiy talab sifatida qo'yilmoqda, bu esa milliy qonunchilikni ushbu talablarga moslashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ESG komponentlari tarqoq holda ifodalangan. Masalan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiya ekologik huquqlarni kafolatlash orqali "Environmental" (E) blokining huquqiy poydevorini mustahkamlaydi. Ijtimoiy blok (S) yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar bilan tartibga solinsa, korporativ boshqaruv (G) masalalari "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun hamda Korporativ boshqaruv kodeksi bilan cheklangan. Biroq muammo shundaki, ushbu komponentlar yaxlit "ESG tizimi" sifatida o'zaro huquqiy jihatdan bog'lanmagan. Bu esa amaliyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy bo'lmagan hisobdorlikni (non-financial reporting) yuritishida huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro moliya institutlari, xususan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) hamda Islom taraqqiyot banki tomonidan ajratilayotgan kredit liniyalari va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bugungi kunda subyektlardan ESG reytingiga ega bo'lishni qat'iy talab qilmoqda. Bu jarayon O'zbekiston korporativ huquq tizimiga "implementatsiya" mexanizmini joriy etishni taqozo etadi. Tadqiqotimiz doirasida taklif etilayotgan huquqiy modelga ko'ra, milliy qonunchilikda ESG standartlarini joriy etish ikki bosqichli mexanizm orqali amalga oshirilishi lozim. Birinchidan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik davlat korxonalarini uchun majburiy ESG hisobdorligi tartibini joriy etish; ikkinchidan, xususiy sektor uchun ixtiyoriy, lekin iqtisodiy rag'batlantirish (masalan, "yashil" soliq imtiyozlari yoki bojxona preferensiyalari) asosida ishlovchi huquqiy rejimni yaratish.

³ United Nations. Paris Agreement. 2015.

Shuningdek, ESG standartlarini qo'llashda yuzaga keladigan huquqiy muammolardan biri — “grinvashing” (greenwashing), ya'ni kompaniyalarning o'z faoliyatini ekologik toza qilib ko'rsatishga urinishlari bilan bog'liqdir.

Kompaniyalar va regulyatorlar ESG investitsiyalari bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish bo'yicha faol ish olib bormoqdalar. Masalan, Avstraliyada yangi qonunchilik joriy etilmoqda, unga ko'ra kompaniyalar barqarorlikka oid kengaytirilgan hisobotlarni taqdim etishga majbur bo'ladi. Ushbu tashabbusning maqsadi shaffoflikni oshirish va “greenwashing” xavfini kamaytirishdan iboratdir.

Shuningdek, ESG reytinglarini standartlashtirish hamda hisobotlarda shaffoflikni oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar ESG amaliyotlarining ishonchliligini oshirishga va investorlarning yanada ongli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi⁴.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun milliy qonunchilikda yolg'on ESG hisoboti uchun yuridik javobgarlik choralari belgilash hamda mustaqil auditorlik tekshiruvlari tizimini huquqiy tartibga solish zarur. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ESG standartlarini huquqiy mexanizmlar orqali tizimlashtirish nafaqat barqaror iqtisodiy o'sishga, balki milliy korporativ huquqning xalqaro standartlar darajasiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. KPMG Valuation & Consulting LLC. (2024, mart). ESG: Роль устойчивого развития в трансформации бизнеса. KPMG Uzbekistan.
2. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development (SDGs). 2015.
3. United Nations. Paris Agreement. 2015.
4. International scientific journal «MODERNSCIENCEAND RESEARCH». Korporativ iqtisodiyotga esg investitsiyalarining ta'siri.
5. Eccles R., Klimenko S. The Investor Revolution. Harvard Business Review, 2019.
6. Edmans A. Grow the Pie: How Great Companies Deliver Both Purpose and Profit. Cambridge University Press, 2020.
7. Mayer C. Prosperity: Better Business Makes the Greater Good. Oxford University Press, 2018.
8. Schanzenbach M., Sitkoff R. Reconciling Fiduciary Duty and Social Conscience: The Law and Economics of ESG Investing. Stanford Law Review, 2020.

⁴ International scientific journal «MODERNSCIENCEAND RESEARCH». Korporativ iqtisodiyotga esg investitsiyalarining ta'siri. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14617351>